

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarmov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati .....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni .....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .....	138
<b>М.М.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari .....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari .....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

**КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ДИЗАЙНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**THE CONCEPT OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCIES IN FUTURE TEACHERS**

**Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lif uslubiyoti kafedrasи o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada davlat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ta'lif mazmunida pedagogik loyihalash metodikasini samarali qo'llash orqali ta'lif samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaliv ta'lif tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarda loyihalash faoliyatini shakllantirishga bo'lgan qiziqish haqida fikrlar yoritib berilgan.*

### **Аннотация**

В данной статье особое внимание уделяется обеспечению эффективности образования посредством эффективного использования методологии педагогического проектирования в содержании образования, которая является движущей силой развития государства. Выделены мысли о заинтересованности в формировании проектной деятельности школьников и студентов в современном образовательном процессе.

### **Abstract**

*This article pays special attention to ensuring the effectiveness of education through the effective use of pedagogical design methodology in the content of education, which is the driving force for the development of the state. Thoughts about interest in the formation of project activities of schoolchildren and students in the modern educational process are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** ta'lif mazmuni, pedagogik loyihalash, ta'lif samaradorligi, pedagogik hamkorlik, ko'nikmalarini o'zlashtirish, shaxsning shakllanishi.

**Ключевые слова:** содержание образования, педагогический дизайн, эффективность обучения, педагогическое сотрудничество, овладение навыками, формирование личности.

**Key words:** content of education, pedagogical design, teaching effectiveness, pedagogical cooperation, mastery of skills, personality formation.

### **KIRISH**

Jamiyat taraqqiyoti bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va tarbiyalash tizimini shu yoshdagi o'quvchilarning ta'lif ehtiyojlariiga moslashtirish, loyihalash kompetensiylarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ya'ni, OTMda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning mavjud mazmuni va usullarini yangi talablar asosida o'zgartirishni dolzarblashtirmoqda. Loyihalash qobiliyati o'qituvchi pedagogik mahoratining asosini tashkil qiladi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash strategiyasining asosiy taktikalaridan biri ularning loyihalash usulini puxta egallashini ta'minlashga qaratilishi zarur. Mazkur holat bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika fanini o'qitish jarayonini loyihalash usullari asosida tashkil qilishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini inobatga olish hamda ta'lif tamoyillariga asoslanish ko'nikmalarini shakllantirish o'ta muhim. Mazkur holat ularning kognitiv, kommunikativ, kreativ, hamkorlik qobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi. Bunda mavjud konsepsiyalarga asoslanish muhim samara beradi, shu bois, paragrafda loyihalash konsepsiyasini ochiqlashga urinib ko'ramiz. O'zbek tilining izohli lug'atida "Konsepsiya (lot. Conception-to'plash, birlashtirish; tizim; ibora) Qarashlar, fikrlar yo'nalishi tizimi, fikr yuritish, dunyonı tushuntirish, anglash usuli", deb izohlanadi. Shuningdek, konsepsiya so'ziga nisbatan biror voqeа, hodisa, jarayo, alohida olingen mavzu, bo'lim yoki butun boshli fanni tushuntirishda tayanch bo'lib xizmat qiladigan tushuncha sifatida anglash lozimligi uqtiriladi.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИ**

Har xil adabiyotlarda (58,105,107) ta'lif subyektlarida loyihalash kompetentligini shakllantirish komponentlari xususida turli qarashlar mavjud. Y.S.Zayats [57] loyihalash usulining motivatsion, umumlashtiruvchi, yo'naltiruvchi, tarbiyaviy, rivojlaniruvchi hamda nazorat kabi komponentlarini o'zaro farqlashni taklif qiladi.

## PEDAGOGIKA

Loyihalash usuli samaradorligi ta'lim subyektlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, maqsad mushtarkligi, eng asosiysi ta'lim subyektlarining nazariy bilim darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda quyidagi muhim jihatlar asosiy rolni o'ynaydi: E'tirof etilayotgan hamkorlik jarayoni pedagog va talabalardan quyidagi muhim jihatlarni talab qiladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mashg'ulot jarayonidagi faolligi, tashabbuskorligi, ma'lumotlarni mustaqil izlab topishi, tahlil qilishi;
- talabalarda bilishga bo'lgan motivatsiyaning mavjudligi, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarining shakllanganligi;
- vaqtini taqsimlash, nazorat shakl va mezonlarini bilish, refleksiya qobiliyatining mavjudligi;
- o'z -o'zini rivojlantirish, sheriklarini rag'batlantira bilishi;
- amalga oshirgan faoliyati uchun mas'uliyat hissini tuyish, hisobot, taqdimot tayyorlay olish;
- dars va darsdan tashqari tadbirdorda faol bo'lish va o'zgalardan shuni talab qila bilish, tashkilotchilik.

Motivatsion komponent talabalarni matematik-metodik tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan o'quv-uslubiy komponent bo'lib, ularda loyihalash usuli faoliyatini o'zlashtirishda motivlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. O'qitish amaliyotida yosh o'qituvchilar kasbiy faoliyatining ilk davrida mashg'ulotlarni loyihalashda tahlil, qaror qabul qilishda bir qator uslubiy muammolarga duch keladi. Bu kabi muammolarning oldini olishning o'ziga xos shart-sharoitlari mavjud. Ulardan biri sifatida Y.S.Zayats OTMdA matematikani o'qitishda talabalarga muammoni hal qilishda o'z harakatlarini himoya qilishga asoslangan qulay vaziyat yaratishni taklif qiladi. Bunda o'qituvchi talabaning loyiha yuzasidan tanlagan qarori natijalari ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi, zarurat tug'ilganda ularni tuzatadi. E'tirof etilayotganish turining muntazam amalga oshirilishi talabalarda loyihalash faoliyatiga nisbatan muayyan motivatsiyaning shakllanishiga, ularning o'z kuchlariga bo'lgan ishonchni oshishiga olib keladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining loyihalash usuli mohiyatining teran anglanilishiga olib keladi. Loyihalash faoliyatining umulashtiruvchi vazifasi talabalarga matematika mashg'ulotlarini tashkil qilishda ular duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar ko'lami, mazmuni hamda ularni imkon darajasida bartaraf etish ko'nikmalari to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu holat talabalarni kasbiy tayyorlash sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada talabalarda kasbiy faoliyatga bo'lgan jiddiy munosabat shakllanadi. Loyihalash faoliyatining yo'naltiruvchi vazifasi turli xarakter va murakkablikdagi misol va masalalarni yechishda hal qiluvchi to'g'ri qarorlarni qabul qilish, qiyinchiliklardan qo'rmaslik, eng muhimi muayyan shartlarga muvofiq optimal qarorlar qabul qilish tajribasini o'zlashtiradilar. Talabalarni o'qitish da mavjud barcha komponent turlarini ta'minlash mumkin emas, buni fanlarni o'qitishga ajratilgan vaqt tanqisligi taqozo qilmaydi, shuning uchun loyihalashdagi turli vaziyatlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan indikativ asosni, asosiy harakatlar tizimini aniqlash kerak. Bunda o'quvchilarning loyiha faoliyati ijodiy izlanish xarakteriga ega bo'lib, ular uchun indikativ asosga ega bo'ladi. Bu bo'lajak o'qituvchiga o'zgaruvchan ta'lim sharoitida ishlashni o'rganishga, o'zgarishlarni modellashtirishga, pedagogik innovatsiyalardan foydalanishda maqsadli ravishda tuzatishlar kiritishga va o'quv materialining murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda o'quv maqsadlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Loyihalash faoliyatining tarbiyaviy vazifasi talabalarda fan asoslarini yaxshi o'zlashtirish bilan birga ularda milliy va umumbashariy qadriyatlar, ajdodlar o'gitiga amal qilish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali loyihalash usulini tanlash uchun o'quvchiga hisoblash texnikasining matematik asos va ko'nikmalarni rivojlantirish qonuniyatlarini o'rgatish kerak bo'ladi. Aynan shu o'rinda ular buyuk mutafakkirlarimizning hayot va ijod yo'llarini, ajdodlarimizning matematika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini anglash va bu bilan faxrlanish hissini tuyishadi.

Loyihalash kompetentligining rivojlantiruvchi vazifasi talabalarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq kognitivlik, kreativlik, moslashuvchanlik, tanqidiylik, o'z garuvchanlik, natijadorlik kabi ijobiy ko'nikmalarni tarbiyalashga yordam beradi. Mazkur ko'nikmalar talabalarning istiqbolda matematikadan har qanday murakkablikdagi loyihalash faoliyatini tashkil qilishlariga metodologik asos vazifasini o'taydi. Natijada talabalarda loyihalash faoliyatini amalga oshirishning mazmuni va usullarini ijodiy o'zlashtirish orqali amaliyotning reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga o'tishi ta'milanadi.

Nazorat vazifalaridan talabalarning metodik matematik tayyorgarligini tashxislash usuli sifatida foydalaniladi. Nazorat talabalarning o'zlashtirgan loyihalash kompetensiyalarini zamon talablariga, o'quv amaliyoti standartlari talablari darajasiga mosligini aniqlab beradi. Loyihalash faoliyatining nazorat vazifalari ular bilan amalga oshiriladigan joriy, oraliq va yakuniy baholash ishlardan muvaffaqiyatli o'tish hamda bo'lguusi faoliyatlari shu kabi ishlarni tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyihalash faoliyatida motivatsiyaning mavjudligini yuqorida sanab o'tilgan barcha faoliyat bilan bog'liq tarkibiy qismlarni harakatga keltiruvchi kuchga qiyoslash mumkin. Chunki aynan qiziqish bo'lgan joyda bilish, tanqidli fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish zaruratinini qanoatlantrish, talabalarda kasbiy fikrlashning moslashuvchanlik, kreativlik, kommunikativ, tanqidiylik, o'zgaruvchanlik, natijadorlik kabi ijobjiy ko'nikmalarni takomillashtirish imkoniyatlari oshadi. Mazkur komponentlarni amalga oshirish yordamida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali uslubiy komponentlarning tasnifini bilish, mashg'ulotlarni loyihalashga mos keladigan uslubiy topshiriqlar tizimini shakllantirish, ushbu tizimdan foydalanish, uning samaradorligini taminlash shart-sharoitlarini o'zlashtirish talab etildi.

### XULOSA

Ko'rinib turibdiki, loyihalash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish tamoyili loyihalash qobiliyatlarini o'zlashtirishning bosqichlariga muvofiq uslubiy vazifalarni muayyan izchillikda murakkablashtirib borishni nazarda tutadi. Loyihalash faoliyatida bosqichli tamoyilni amalga oshirish berilayotgan topshiriqlarning motivatsion va tarbiyaviy funksiyalarini o'zida uyg'unlashtiradi.

Mamlakatimiz pedagogikasida bo'lajak pedagoglarda loyihalash kompetentligini rivojlantirish uchun yetarli huquqiy, moddiy-texnik, metodik ta'minot va pedagogik baza mavjud. Endigi asosiy vazifa sanab o'tilgan omillarni birlashtirish va ularni loyihalash faoliyatiga safarbarligini ta'minlashga yo'naltirishimizga bog'liq. Boshqacha aytganda, pedagogik loyihalash imkoniyatlarini oshirish uchun o'quv dasturlari, rejali, darsliklar mazmunini loyihalash nuqtai nazarida takomillashtirish, pedagogika OTMga abituryentlarni qabul qilishda pedagogik iqtidorini inobatga olish o'ta muhim tadbirlardan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva B., Sadikova A., Jabborova Yu., Toshpulatova M., Muxitdinova N. Matematika: o'qituvchilar uchun pedagogik qo'llanma (4- sinf). – Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2017. 240 b.
2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2003. – 234 б.
3. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 254 б.
4. Ашуррова С.И. Maxsus фанларни модуллар ўқитиш жараёнини ташкил қилиш ва ўтказиш // Касб-хунар таълими. –Т., 2004. – № 5
5. Asadov Y.M., Turdiyev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korrektsiyalash pedagogikalari Uslubiy qo'llanma. – Т.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy – tadqiqot instituti, 2016. – 160 b.
6. Asqarova O., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti- Toshkent: 2014.
7. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /Т.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
8. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo'chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
9. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Т.: O'qituvchi, 1996. – 93 b.
10. Тоғиев М., Алимов А.Я., Құчқаров Д.У. Педагогик технология таълим жараёнига татбиғи (Бошланғич таълимда математика ўқитиш методикаси фани дарсларининг лойиҳаси) -Тошкент. "Тафаккур" нашриёти. 2010, - 148 б.
11. Bregman L. M., "Finding the common point of convex set by the method of successive projections"
12. Youla D., "Mathematical Theory of Image Restoration by the Method of Convex Projections", In: *Image Recovery: Theory and Application* (H. Stark (ed.), Academic Press, 1987).